



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI
VAZIRLIGI



Respublika
Ta'lim Markazi

RESPUBLIKA TA'LIM MARKAZI

**2023–2024-O'QUV YILIDA ALOHIDA TA'LIM EHTIYOJLARI
BO'LGAN BOLALAR UCHUN IXTISOSLASHTIRILGAN
MAKTAB VA MAKTAB-INTERNATLARNING 11-SINF
O'QUVCHILARI UCHUN ONA TILI FANIDAN
YAKUNIY DAVLAT ATTESTATSIYASINI O'TKAZISH
BO'YICHA METODIK TAVSIYA VA MATERIALLAR**



TOSHKENT – 2024

Imtihon materiallari Respublika ta'lim markazining Maxsus pedagogika bo'limining ilmiy-metodik kengashida 2024-yil 19-martdagi 2-son qarori bilan tasdiqlanib foydalanishga tavsiya etildi.

TUZUVCHILAR:

Z.Djurayeva – Respublika ta'lim markazi Maxsus pedagogika bo'limi boshlig'i.
O.Tadjiyeva – Toshkent shahar M.Ulug'bek tumanidagi 101-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

TAQRIZCHILAR:

M.Botirova – Navoiy viloyati Karmana tumanidagi 25-sonli kar bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.
M.Boqijonova – Toshkent shahar Olmazor tumanidagi 106-sonli zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab-internatning ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi.

MUHARRIRLAR:

N.M.Rasulov – Respublika ta'lim markazi Filologiya bo'limi boshlig'i.
G'. Boboqulov – Respublika ta'lim markazi metodisti.

ONA TILI XI SINIF

2023–2024-o‘quv yilida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarning 11-sinflarida ona tili fanidan yakuniy imtihon tavsiya etilgan mavzular asosida yozma shaklida o‘tkaziladi.

Kar va zaif eshituvchi bolalar ta’lim muassasalari metodbirlashmalari tomonidan bosqichli nazorat imtihon materiallariga 15–20% gacha o‘zgartirishlar kiritishi mumkin.

Kar va zaif eshituvchi bolalar uchun ixtisoslashtirilgan maktab va maktab-internatlarining bitiruvchilari yakuniy attestatsiyada ijodiy bayon yozadilar.

Ijodiy bayonda ko‘proq badiiy, ma’naviy-ma’rifiy masalalar, ijtimoiy va siyosiy hayot, fan va texnika yangiliklari, fanlararo bog‘liqlik to‘g‘risidagi mavzular yoritiladi.

O‘quvchilar bayonning quyidagi turlaridan foydalanib **ijodiy bayon** yozadilar:

- Matnga badiiy tasvir vositalarini kiritish orqali ijodiy bayon yozish;
- boshlab berilgan matnni o‘z fikr-mushohadalari asosida davom ettirish;
- matn shaxsini o‘zgartirib ijodiy bayon yozish.

Bayon matnlari 3 variantda tayyorlanadi. Har bir variantda bittadan matn bo‘lib, har bir matn bilan birga ijodiy bayon yozishning bir turi asosida topshiriq beriladi. Bir o‘quvchi 3 ta konvertdan bittasini tanlab oladi. Tanlab olingan konvertidagi matn mavzusi doskaga yozib qo‘yiladi. Ijodiy bayon uchun berilgan topshiriq ham doskaga yozib qo‘yiladi. 9-sinfda O‘qituvchi tomonidan kamida 200–210 ta so‘zdan iborat bo‘lgan, 180–200 ta so‘zdan iborat 2–2,5 betli bayon, 11-sinf o‘quvchilari esa kamida 230–250 ta so‘zdan iborat bo‘lgan ijodiy bayon matni og‘zaki va daktil nutqda ikki (lozim bo‘lsa uch) marta o‘qib eshittiriladi. O‘quvchilar eshitgan matn yuzasidan berilgan topshiriq asosida ijodiy bayon yozadilar. Ijodiy bayon hajmi kamida 200–220 ta so‘zdan iborat bo‘lgan 2–2,5 betli bayon yozishlari lozim. **Ijodiy bayon yozish uchun 180 daqiqa beriladi.**

Ijodiy bayon matnlari o‘qituvchi tomonidan tanlanadi va ta’lim muassasasi metod birlashmasida muhokama qilinib ma’qullanadi. Ma’qullangan materiallar ta’lim muassasasi rahbariyati tomonidan tasdiqlanadi.

BAYON QUYIDAGI MEZONLAR ASOSIDA BAHOLANADI:

№	Mezonlar	Ball
1	Reja mavzuga muvofiq tuzilgan, matn mazmuni to'g'ri bayon qilingan bo'lsa; bayon mantiqli va muntazam bo'lsa; so'z boyligi, ifoda qurilishi va uslubi adabiy til talablariga mos bo'lib mazmun va ifodada bir ikki xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda qo'pol bo'lmagan bitta imlo yoki ikkita ishoraviy xato bo'lsa; uslubiy xato bo'lmasa.	5
2	Matn reja asosida yoritilib, fikr bayonida muntazamlik qisman buzilgan bo'lsa; so'z tanlashda va ifoda qurilishida har xillik bo'lsa; mazmun va ifodada 2-3 kamchilik bo'lib, savodxonlikda 3 tagacha imlo, 3 tagacha ishoraviy va ikkitagacha uslubiy xato mavjud bo'lsa.	4
3	Mavzu to'liq yoritilmagan, mavzudan qisman chetga chiqilgan bo'lsa; aniq voqeyilik izohida nuqsonlarga yo'l qo'yilgan bo'lsa; so'z boyligi va ifoda tuzilishida nochorlik sezilib tursa; savodxonlikda 4 tagacha imlo, 4 tagacha ishoraviy, 3 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	3
4	Matn mazmuni ko'p buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifodada 5-6 tagacha nuqsonga yo'l qo'yilgan bo'lsa; savodxonlikda 7 tagacha imlo, 7 tagacha ishoraviy va 7 tagacha uslubiy xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	2
5	Matn mazmuni kam buzilgan bo'lsa; ish rejaga mos bo'lmasa, fikr bayoni va qurilishida kamchilik bo'lsa, fikrlar bir-biriga bog'lanmasa; so'z boyligi sayoz bo'lib, mazmun va ifoda hamda savodxonlikda 10 dan ortiq xatoga yo'l qo'yilgan bo'lsa.	1

KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR TA'LIM MUASSASALARI UCHUN IJODIY BAYON MAVZULARIDAN NAMUNALAR

1-VARIANT

Ekologik muammolar

Ekologiya – atrof-muhitdagi turli organizmlar faoliyatini o‘rganadi. Ekologiyaga atrofimizdagi barcha tirik mavjudotlar va jonsiz narsalar o‘zaro ta’sir qila oladi. Hozirda atrof-muhit bilan bog‘liq shunday muammolar borki, biz ularni ekologik muammolar deb ataymiz.

Ekologik muammolar jamiyatimizning eng dolzarb masalasi. Ularga vaqtida chora ko‘rilmasa, bizni ofatlar va fojealarga yetaklashi mumkin. Ichimlik suvining yetishmasligi, havoning ifloslanishi, haroratning keskin ko‘tarilishi, o‘simlik va hayvon turlarining yo‘qolib ketishi dolzarb ekologik muammolarga kiradi.

Ichimlik suvining yetishmasligi. Hozirgi kunda yer yuzida ikki milliard odamga toza ichimlik suvi yetishmaydi. 2030-yilga kelib yetti million kishi toza suv yetishmasligi tufayli o‘z yurtlarini tashlab, o‘zga yurtlarga ko‘chib ketish ehtimoli mavjud. Suvning yetishmasligi, asosan, suvdan o‘rinli foydalanmaslik natijasida yuzaga keladi.

Havoning ifloslanishi. Havoning ifloslanishi zavodlar, fabrikalar, issiqlik elektr stansiyalari va transport vositalarining ishlashi vaqtida atmosferaga turli xil gazlar chiqarilganda sodir bo‘ladi.

Haroratning keskin ko‘tarilishi. Tadqiqotlar yerdagi o‘rtacha harorat asta-sekin o‘sib borayotganini ko‘rsatmoqda. Buning sababi gazlar ta’sirida atmosferaning ifloslanishidir. Natijada, iqlim o‘zgaradi, muzliklar eriydi, turli xil o‘simliklar, hayvonlar yo‘qolib boradi.

O‘simlik va hayvon turlarining yo‘qolishi. Sayyorada har bir daqiqada jonzoatlarning bittadan turi yo‘qolib bormoqda. Bunga sabab – iqlim o‘zgarishi, o‘rmon yong‘inlari, dengiz hamda okeanlarning ifloslanishidir. Hatto ov qilish orqali ham ularga zarar yetkazilmoqda.

Barcha holatlarning sababchisi inson hisoblanadi. Odamlar ekologik muammolarni o‘zlariga bevosita aloqasi yo‘q deb o‘ylaydilar. Aslida unday emas. Insoniyatning tabiiy resurslardan oqilona foydalanmasligi barcha ekologik muammolarning bosh sababidir.

Tog‘lardan keladigan suv tiniq, sof bo‘ladi. Lekin ba’zi kimsalarning turli chiqindilarni tashlashlari natijasida suvlarimiz ifloslanadi. Bolalar, kattalar shu suvlarda cho‘miladilar va turli kasalliklarga chalinadilar. Atrof-muhitning tozaligini saqlab qolish o‘zimizga bog‘liq. Buning uchun barchamiz birdek mas’ulmiz.

(254 ta so‘z)

2-VARIANT

Talaba bo'lish orzusi

Fasllar malikasi bahor o'zining kamalak seplarini butun borliqqa yoya boshladi. Bahorni biz kabi intiqib kutgan hovlimizdagi bodom tezda oppoq gullarga burkanib oldi. U go'zallikni, poklikni, yoshlikni o'zida namoyon qildi. Hamma unga havas bilan qaradi.

Men ham maktab bog'idagi katta bodom daraxti gullaganda, beg'ubor bolaligimni eslayman. Ilk maktabga qadam qo'yganimda, bahor kelishi bilan bu daraxt yosh niholcha edi. Shunga qaramay chamanday gullaganda, unga havas bilan qarardim. U ham menga juda qadrdon, xuddi ustozlarim, mehribon tarbiyachilarim kabi edi.

Bu dargohda bilim olishimiz, dam olishimiz, yashashimiz uchun barcha sharoitlar yetarli edi. Turli-tuman o'yinchoqlar, rasmi kitoblar, televizor, sport maydonchalari ham biz uchun tayyor edi. Faqat ota-onamni sog'inardim. Shunday paytlarda mehribon tarbiyachilarim meni chalg'itishga harakat qilishar, qiziqarli o'yinlar tashkil qilib, zeriktirishmas edi. Uyga borganimda esa ota-onam ustoz va tarbiyachilarimni hurmat qilishimni, maktabdagi sharoit uydagiga qaraganda har tomonlama qulay ekanligini aytishardi. Maktab-internatim ikkinchi uyimga aylandi. Ta'tilda uyga borsam, maktabni sog'inib qolardim. Do'stlarimni, onamdek mehribon ustoz-tarbiyachilarimni ko'rgim kelardi. Men chindan baxtli edim.

Mustaqil o'sib ulg'ayishimiz, bilim olishimiz uchun hamma sharoit mavjud. Mazali taomlar va tuganmas mehr-e'tibor hammasi davlatimiz rahbarining biz kabi yoshlarga beqiyos mehri, e'tibori ekanligini bilardim.

Shu dargohda sog'-salomat ulg'aydim. Bilimga, ma'naviyatga ega bo'ldim. Ota-onamni, ustozlarimni, do'stlarimni va Vatanimni sevishni o'rgandim. Endi orzuim bu dargohni bitirib, mustaqil hayotga qadam qo'yish. Menga "Kim bo'lsam ekan?" degan fikr tinchlik bermasdi. Eng qiziqadigan mashg'ulotim bo'lgan kompyuter va axborot tizimi yo'nalishi bo'yicha mukammal bilim olishni maqsad qildim. Shu yo'nalishdagi oliygohga hujjat topshirib, talaba bo'lish eng oliy orzuimga aylandi. Bu dargohni a'lo baholarga bitirib, axborot tizimini mukammal o'rganib, eng ilg'or sohada mehnat qilaman. Men ham davlatimiz rivojiga o'z hissamni qo'shaman.

(267 ta so'z)

3-VARIANT

Kitob – ma’rifat o‘chog‘i

Kitob insoniyat hayotini ma’naviy boyitadigan vositadir. U insoniyat yaratgan mo‘jizalardan biri. Kitob insonning eng yaqin do‘sti va maslahatchisi hisoblanadi. U tarixning darakchisi, bugunning tarbiyachisi va muallimi, shuningdek, kelajakning yo‘lboshchisidir. Dono xalqimiz kitob haqida shunday deydi: “Kitob ko‘rmagan bosh – giyoh unmagani dala”. Bu hikmatli so‘zda shunday ma’no borki, giyoh o‘smagan dalani hech kimga foydasi yo‘q. Undan hech kim manfaat topmagani kabi kitob ko‘rmagan bosh ham shu kabi hech kimga foydasi tegmaydi.

Ajdodlarimiz hayotida kitoblar muhim rol o‘ynagan. Ular kitobni o‘z do‘stlariday ko‘rganlar. Jumladan, Alisher Navoiy shunday degan: “Kitob-beminnat ustoz, har daqiqa u bizni donishmandlarning bilim xazinasini bilan oshno eta oladi”. Kitobni biz azaldan boylikdan ustun qilib kelganimiz. Bunga bir misol, Abu Ali Ibn Sino Buxoro hukmdori Nuh ibn Mansurni davolagach, evaziga oltin-u kumushga to‘la sandiqni emas, balki saroy kutubxonasidan foydalanish imkoniyatini afzal biladi. O‘zbekiston Qahramoni Ozod Sharafiddinov esa farzandlariga vasiyat sifatida quyidagilarni aytgan edi: “Kitoblarimni asranglar, mening eng katta boyligim mana shu kitoblar edi...” Haqiqatan ham, kitoblar bebaho boylikdir.

Inson bilimli, kasb-hunarli, baxtli bo‘lishining muhim omili – bu kitobga do‘st bo‘lishdir. Kitobga hamroh bo‘lgan inson faqat odamiylik saboqlarini o‘rganadi. Ayniqsa, yoshlarning baxt-u kamoli, osoyishta va farovon hayotida kitob o‘qishning alohida o‘rni bor. Shunday ekan, aziz yoshlar, kitob o‘qing. Agar insonning hayot yo‘lidagi yo‘ldoshi kitob bo‘lsa, u hayot so‘qmoqlaridan mamnuniyat bilan o‘ta oladi.

(212 ta so‘z)